



SOCIAL RIGHTS OF CHILDREN IN UZBEKISTAN: COMPLIANCE WITH NATIONAL LEGISLATION AND INTERNATIONAL STANDARDS

Adilova Marjangul Elmuratovna

Teacher of the Department of "Human Rights, Public
Law and Governance" of Karakalpak State University

Gulimbetova Khurliman Yusup kizi

Student of Karakalpak State University

Abstract

This article analyzes the legal guarantees of children's social rights, and the harmony between international standards and national legislation. It examines the elimination of the worst forms of child labor, support for children in need of social protection, and their rights to education and medical services. Furthermore, the role of the state in ensuring the best interests of children and the issues of fostering a society of zero tolerance towards child rights violations are highlighted.

Keywords: Child rights, social protection, Convention, child labor, inclusive education, legal guarantee, rehabilitation, guardianship and trusteeship, state provision.

O‘ZBEKISTONDA BOLALARNING IJTIMOY HUQUQLARI: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO STANDARTLAR UYG‘UNLIGI"

ADILOVA MARJANGUL ELMURATOVNA

Qoraqalpoq davlat universiteti "Inson huquqlari,
davlat huquqi va boshqaruvi" kafedrası o‘qituvchisi

GULIMBETOVA HURLIMAN YUSUP QIZI

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bolalar ijtimoiy huquqlarining huquqiy kafolatlari, xalqaro standartlar va milliy qonunchilikning o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilingan. Unda bolalar mehnatining eng og‘ir shakllariga barham berish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ta‘lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqlari yoritilgan. Shuningdek, davlatning bolalar manfaatlarini



ta'minlashdagi roli va jamiyatda bola huquqlariga nisbatan muhosasizlik muhitini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, ijtimoiy himoya, Konvensiya, bolalar mehnati, inkluziv ta'lim, huquqiy kafolat, reabilitatsiya, vasiylik, davlat ta'minoti.

Аннотация:

В данной статье анализируются правовые гарантии социальных прав детей, взаимосвязь международных стандартов и национального законодательства. Рассматриваются вопросы искоренения наихудших форм детского труда, поддержки детей, нуждающихся в социальной защите, а также их права на образование и медицинское обслуживание. Также освещается роль государства в обеспечении интересов детей и вопросы формирования в обществе атмосферы нетерпимости к нарушениям прав ребенка.

Ключевые слова: права ребенка, социальная защита, Конвенция, детский труд, инклюзивное образование, правовая гарантия, реабилитация, опека и попечительство, государственное обеспечение.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida har bir jamiyatning ma'naviy qiyofasi va kelajakdagi salohiyati uning bolalarga bo'lgan munosabati bilan o'lchanadi. Bolalik davri shunchaki hayotning bir bosqichi emas, balki shaxsning shakllanishi va jamiyatning davomiyligini ta'minlovchi strategik davrdir. Shu bois, bolalarning ijtimoiy huquqlari — ularning munosib turmush darajasi, sifatli ta'lim va sog'lom rivojlanishiga xizmat qiluvchi huquqiy kafolatlar majmuasidir. Har bir jamiyatning rivojlanish darajasi va kelajagi uning bolalarga bo'lgan munosabati va ularning huquqlarini qay darajada ta'minlashi bilan bevosita aloqador. Bolalar ijtimoiy huquqlari - har bir bolaning munosib hayot kechirishi, ta'lim olishi va sog'lom voyaga yetishi uchun yaratilgan **hayotiy kafolatlardir**. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiyada «Bolalarga nisbatan barcha xatti-harakatlarda, ular ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat yoki xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan sodir etiladimi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga birinchi darajali e'tibor berilishi belgilangan.

Bolalarning ijtimoiy huquqlari haqida aytilgan, albatta ularning mehnat qilish huquqlari va ushbu sohada ularga alohida huquqiy kafolatlar berilishi kerak. Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi Konvensiyada bolalarni bolalar



mehnatining eng yomon shakllariga jalb etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka; bolalarning bolalar mehnatining eng yomon shakllar bilan mashg‘ul bo‘lishlarini to‘xtatishga, shuningdek, ularni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy integratsiyalash uchun zarurat va talab darajasida bevosita ko‘maklashishga; bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan xalos etilgan barcha bolalar bepul umumiy ta‘lim olishlari, shuningdek, ular uchun imkoniyat darajasida va zaruratga qarab kasbga o‘qish uchun sharoit yaratilishiga; alohida xavfli ahvoldagi bolalarni aniqlash va qamrab olishga; qizlar ahvolining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish belgilangan. Eng kichik yosh to‘g‘risidagi Konvensiyaga muvofiq, o‘z xususiyati yoki amalga oshiriladigan sharoitiga ko‘ra o‘smir sog‘ligi, xavfsizligi yoki ma‘naviyatiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday ish turiga yoki yollanma ish turiga qabul qilish uchun eng kichik yosh o‘n sakkiz yoshdan kam bo‘lmasligi kerak. Ushbu Konvensiya qoidalari hech bo‘lmaganda shaxta va karyerlarda; ishlov berish sanoatida; qurilishda; elektr, gaz va suv ta‘minotida; sanitariya xizmatlarida; transport, omborlar va aloqa xizmatida; ekinzorlar va tijorat maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan boshqa qishloq xo‘jalik korxonalaridagi ishlarda, shu jumladan, mahalliy iste‘mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan, doimiy ravishda yollanma mehnatkashlardan foydalanmaydigan oilaviy va kichik xo‘jaliklarda sohalarda qo‘llanilishi lozim.

Xalqimiz tarixan bolalarni alohida himoyaga muhtij qatlam sifatida ularga g‘amxo‘rlik qilib kelgan. Biz nafaqat xalqaro hujjatlar, balki milliy qonunchiligimizda ham bolalar huquqlarini yuqori darajada mustahkamlashga harakat qilganmiz. Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar ratifikatsiyasi va ushbu hujjatlar asosida qabul qilingan milliy qonunchilik hujjatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risidagi qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning oila muhitiga bo‘lgan huquqi kafolatlariga alohida e‘tibor berilgan. Jumladan davlat bolaning oilada bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi sharoitlarni bartaraf qilish, bola oilasidan ajratilgan hollarda esa uni oilasiga tezroq qaytarish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishi, nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga moddiy yordam, maslahat yordami va boshqa yordam ko‘rsatish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashi belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni muqobil joylashtirishning quyidagi shakllari ko‘rsatilgan:

- ✓ vasiylik va homiylikni belgilash;
- ✓ bolani farzandlikka olish;
- ✓ oilaga tarbiyaga olish (patronat);



✓ ixtisoslashtirilgan tarbiya, davolash muassasalariga, ijtimoiy himoya muassasalariga joylashtirish.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlarga ega.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ular oilalarining jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmaslik shartlari asosida dasturlar ishlab chiqish tashabbuskori bo'ladi hamda zarur resurslar ajratadi. Ta'lim, tibbiyot va madaniy-ma'rifiy muassasalar nogironligi bo'lgan bolalarning hamda jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning erkin harakatlanishlari uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak.

Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni tashkil etadi hamda bunga ko'maklashadi. Nogironlik belgilangan paytdan boshlab bola tegishli davlat organlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan yakka tartibdagi reabilitatsiya dasturidan foydalanish huquqiga ega. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, to'liq davlat ta'minotida turgan ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini bitirgan yoki jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan bolalar, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifadagi bolalar o'zlari ilgari yashagan turar joy maydoniga ega bo'lish yoki qonunchilikka muvofiq turar joy olish huquqiga ega.

Davlatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi kafolatlari alohida muhofaza qilinadi. Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi.

Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar, moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi. Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga, o'rta maxsus, ta'lim muassasalariga tarbiyaga berilgan kundan e'tiboran to'liq davlat ta'minotida bo'ladi. To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'lim berish, ularni uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy ta'minot buyumlari bilan ta'minlash, ular ta'lim muassasalarini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy ta'minot buyumlari sotib olish uchun nafaqa to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Nogironligi bo'lgan bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega bo'lib, bu profilaktika, davolash-tashxis qo'yish, rehabilitatsiya, sanatoriy-kurort, protez-ortopediya yordamini, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli shartlarda ta'minlanishni va boshqa yordam turlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim olish harbir insonning ajralmas huquqi hisoblanadi, davlat jamiyat bu huquqni kafolatlashi va o'zida mavjus barcha resurslar bilan ta'minlashga harakat qilishi kerak.

O'zbekistonda davlat maxsus pedagogik yondashuvga ehtiyoji bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning belgilangan ta'lim standartlari va talablari darajasida bilim olishlarini kafolatlovchi zarur mablag'lar ajratadi hamda boshqa choralar ko'radi. Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogironligi bo'lgan bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqini ta'minlaydi. Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi bo'lgan taqdirda, jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari o'z xohish-istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishda qonunchilik bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin.

Bolalar ijtimoiy huquqlarining kafolatlanishi – davlat va jamiyatning birgalikdagi vazifasidir. Bu nafaqat bolalar, butun jamiyat va davlat rivojini belgilovchi asosiy me'zonlardan biri. Jamiyatda bola huquqlarining buzilishiga toqatsizlik munosabatini shakllantirish, ularning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularga ham o'ziga xos himoya vositalarini joriy etish zarur.

Ushbu maqolada yuritilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalar ijtimoiy huquqlarining himoya qilinishi shunchaki huquqiy norma emas, balki har qanday davlatning sivilizatsiyalashganlik darajasini belgilovchi eng asosiy mezondir. Bolalik – inson hayotidagi eng zaif va shu bilan birga eng muhim davr bo'lib, bu davrda berilgan e'tibor va ta'minlangan huquqlar shaxsning butun umri davomidagi muvaffaqiyatiga poydevor bo'ladi.

Xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilikning o'zaro uyg'unligi natijasida O'zbekistonda bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning mustahkam tizimi yaratildi. Bolalar mehnatining eng yomon shakllariga chek qo'yilishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bolalar



uchun alohida imtiyozlar belgilanishi bu yoʻldagi eng muhim yutuqlardir. Biroq, huquqiy kafolatlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning amaliyotda toʻliq ishlashini taʼminlash hamon dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2023.
2. Bola huquqlari toʻgʻrisida Konvensiya. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. (Oʻzbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda qoʻshilgan)
3. Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va yoʻq qilishga doir shoshilinch choralar toʻgʻrisidagi Konvensiya (Xalqaro mehnat tashkilotining 182-sonli Konvensiyasi). Jeneva, 1999-yil 17-iyun.
4. Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh toʻgʻrisidagi Konvensiya (Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli Konvensiyasi). Jeneva, 1973-yil 26-iyun.
5. Oʻzbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida»gi 07.01.2008-yildagi OʻRQ-139-sonli Qonuni // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2008-y., 1-2-son, 1-modda.
6. Oʻzbekiston Respublikasining «Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida»gi Qonuni. 2014-yil 2-yanvar, OʻRQ-364-son.
7. Yakubova I.B. Bola huquqlari: xalqaro va milliy tajriba. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: TDYU, 2019.
8. Gulyamov S.S. Ijtimoiy himoya huquqi: darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
9. Official website of UNICEF. Child Rights and Social Protection reports (www.unicef.org).

